

**HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TIUIDAN  
TESTLAR TO'PLAMI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY VA O‘RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI  
O‘zDJTU QOSHIDAGI UCHTEPA AKADEMIK LITSEYI**

---

**ANORBEKOVA ADOLAT,  
MIRZAYEVA SHAROFAT**

**HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILIDAN  
TESTLAR TO‘PLAMI**

**«NOSHIR»  
Toshkent — 2011**



## **1-ma'ruza:**

### **Til haqida umumiy ma'lumot**

1. Shevalar adabiy tildan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?  
A) fonetik B) leksik C) fonetik va leksik D) fonetik, leksik, grammatik
2. Adabiy tilning qanday shakli bor?  
A) xalq shevalari va adabiy til B) og'zaki adabiy til va yozma adabiy til  
C) so'zlashuv uslubi, kitobiy uslub D) so'zlashuv, ilmiy, rasmiy va badiiy uslublar
3. Tilshunoslikda lahja atamasi qanday tushunchani anglatadi?  
A) ma'lum shevaning kichik bir qismi B) bir-biriga yaqin bo'lgan shevalar yig'indisi C) sheva atamasining sinonimi sifatida ishlatiladi. D) xalq tilining ma'lum bir me'yorlarga keltirilgan shakli
4. Qaysi qatorda adabiy tilning yozma shakliga xos xususiyat noto'g'ri ifodalangan?  
A) yozma nutq kishilar orasidagi bevosita aloqa vositasi hisoblanadi  
B) yozma shaklda orfografik va tinish belgilariga oid qonun-qoidalarga amal qilinadi  
C) yozma shakl og'zaki shaklga qaraganda til taraqqiyotining keyingi bosqichlarida joriy qilingan D) yozma shakl uchun masofa va zamonning ahamiyati yo'q
5. Hozirgi o'zbek adabiy tili uchun qaysi lahjaga kiradigan shevalar asos qilib olingan?  
A) qarluq B) qipchoq C) o'g'uz D) qarluq va qipchoq
6. So'zlarning kelib chiqish, paydo bo'lish yo'llarini o'rganuvchi sohaning nomi?  
A) leksikologiya B) leksikografiya C) frazeologiya D) etimologiya
7. Ovro'pa ilmida qaysi davrdagi turkiy til chig'atoy tili deb nomlangan?  
A) XV-XVI asrlardagi B) XIII-XV asrlardagi C) XI-XV asrlardagi  
D) X-XII asrlardagi
8. Xalq shevalarining qanday shakli bor?  
A) faqat og'zaki shakli B) faqat yozma shakli C) umumxalq tili va adabiy til shakli D) og'zaki va yozma
9. O'zbek tili qaysi til oilasining qaysi guruhiga mansub?  
A) turkiy tillar oilasining oltoy guruhiga B) hind-yevropa oilasining turkiy guruhiga  
C) oltoy oilasining turkiy guruhiga D) eron oilasining hind-yevropa guruhiga
10. Ijtimoiy hayotda ro'y bergan o'zgarishlar hammadan avval va ko'proq tilshunoslikning qaysi bo'limida o'z ifodasini topadi hamda unda ayrim o'zgarishlar bo'lishiga olib keladi?  
A) orfoepiyada B) leksikologiyada (lug'at tarkibida) C) grammatikada  
D) so'z yasashida
11. Dunyodagi xalqaro tillar qaysi qatordagi javobda aks etgan?  
A) ingliz, fransuz, rus, ispan, arab, xitoy B) o'zbek, usmonli turk, qozoq, qirg'iz, ozarbayjon, rus  
C) ingliz, nemis, yapon, italyan, polyak, rus D) lotin, hind, eron, xitoy, rus, ingliz
12. Hayotimizda adabiy tilning mavqei, ta'siri kuchaygan sari sheva so'zlarining qo'llanish doirasi qanday bo'ladi?  
A) sheva so'zlarining qo'llanish doirasi kengayadi B) sheva so'zlarining adabiy tilga o'zlashishi kuchayadi  
C) sheva so'zlarining qo'llanish doirasi zaiflashadi D) sheva so'zlarining qo'llanishi yo'qola boradi E) C, D

13. Eski o'zbek adabiy tili qaysi asrlarda shakllangan edi?  
 A) X-XI asrlarda B) XI-XII asrlarda C) XIII asrda D) XIV asrda
14. XI asrda grammatikaga oid asar yozgan mashhur vatandoshimiz kim?  
 A) Yusuf Xos Hojib B) Mahmud Qoshg'ariy C) Abulqosim Zamahshariy  
 D) Narshaxiy
15. Quyida berilgan tillardan qaysi biri o'lik tillarga kiradi?  
 A) uyg'ur tili B) lotin tili C) yoqut tili D) yunon tili
16. O'zbek adabiy tili qaysi jihatdan Toshkent shahar shevasiga asoslanadi?  
 A) fonetik B) morfologik C) sintaktik D) leksik
17. Hozirgi o'zbek adabiy tili uchun qaysi shevalar asos qilib olingan?  
 A) Andijon-Shahrixon B) Xorazm-Urganch C) Toshkent-Guliston  
 D) Farg'ona-Toshkent
18. Turkiy tillarga oid dastlabki yodgorliklar qaysi asrlarga tegishli?  
 A) V-VI B) VI-VII C) VIII-IX D) X-XI
19. Qadimgi turkiy adabiy til qaysi asrlarni o'z ichiga oladi?  
 A) VII-X B) X-XII C) V-VIII D) IX-XIII
20. Qaysi qatordagi izoh noto'g'ri? A) adabiy til shu xalq tilida so'zlashuvchilar uchun umumiy bo'ladi B) xalq tili tarkibida adabiy til ham bo'ladi C) xalq tili o'zbek adabiy tili hisoblanadi D) xalq tili o'zbek xalqining so'zlashuv nutqidir
21. Qaratqich kelishi qo'shimchasi -ing, jo'nalish kelishi qo'shimchasi -a shaklida qo'llanishi qaysi lahjaning morfologik belgisi hisoblanadi?  
 A) qarluq lahjasi B) qipchoq lahjasi C) o'g'uz lahjasi D) A,B E) A,C
22. Zamahshariy qaysi asarini chig'atoy (o'zbek) tiliga o'zi tarjima qilgan?  
 A) «Al-Mufassal» B) «Muqaddimat-ul-adab» C) «Asos-ul-balog'a»  
 D) «Notiqlik asoslari»
23. Qaysi lahjada jo'nalish kelishi qo'shimchasi -a shaklida qo'llanadi?  
 A) shahar shevalarida B) o'g'uz C) qipchoq D) qarluq
24. Mashhur vatandoshimiz Zamahshariyning otlar, fe'llar, bog'lovchilar, otlarning turlanishi, fe'llarning tuslanishi haqidagi besh qismdan iborat asarini aniqlang.  
 A) «Al-Mufassal» B) «Muqaddimat-ul-adab» C) «Sarfuh nahv» D) «Asos-ul-balog'a»
25. O'zbek tili asosan qaysi davrdan boshlab o'quv fani sifatida maktablarda o'qitila boshlandi?  
 A) XV asrdan B) XVIII asrning oxirlaridan C) XIX asrning boshlaridan  
 D) XX asrning boshlaridan
26. Qadimiy xorazmiy tili qaysi tillar turkumiga mansub bo'lgan?  
 A) turkiy turkumga B) oltoy tillar oilasiga C) eron turkumiga D) hind turkumiga
27. Kim turkiy til grammatikasini ishlab chiqqan birinchi tilshunos olim sifatida e'tirof etiladi?  
 A) Alisher Navoiy B) Mahmud Zamahshariy C) Mahmud Qoshg'ariy  
 D) Abu Nasr Farobiy
28. Ko'pincha so'z oxiridagi g' tovushi o'rnida v aytilishi qaysi lahjada so'zlashuvchilar nutqiga xos?

A) qarluq lahjasida B) qipchoq lahjasida C) o'g'uz lahjasida D) shahar shevalarida

29. Xalq shevalari nima?

A) qo'llanish doirasi ma'lum hudud bilan chegaralangan umumxalq tilining bir qismi B) adabiy tilning og'zaki va yozma shakllari mavjud bo'lib, uning og'zaki shakli xalq shevalari hisoblanadi C) umumxalq tilining me'yorga solingan shakli D) o'zbek millatining hamma uchun umumiy bo'lgan tili.

30. Qanday shakllar adabiy tilga xos? A) faqat yozma adabiy til B) mahalliy so'zlashuv tili va yozma adabiy til C) faqat og'zaki adabiy til D) og'zaki adabiy til va yozma adabiy til.

31. Yozuv adabiy tilning qaysi shakli uchun xos? A) Og'zaki adabiy til uchun B) Yozma adabiy til uchun C) Faqat rasmiy uslub uchun D) Yozuv ilmiy uslub uchungina kerak.

32. Adabiy tilning rivojida shevalar qanday ahamiyatga ega?

A) Ular adabiy til uchun zararli hodisa sanaladi. B) Shevalar adabiy til uchun ichki manba sanaladi. C) Adabiy til shevalardan kuch-qudrat olib rivojlanadi. D) Adabiy til rivoji uchun shevalarning hech qanday ahamiyati yo'q.

33. XI-XIV asrlarda xalqimiz foydalangan til qanday nomlanadi?

A) Qadimgi turkiy til B) Eski turkiy til C) Eski o'zbek tili D) Qadimgi o'zbek tili

34. Quyidagi manbalardan qaysilari turkiy tillarga mansub? 1. «Xuastuanift»

2. O'rxun-Enasoy obidalari 3. «Avesto» 4. «Devonu lug'otit turk»  
A) 1,2,3,4 B) 1,2,3 C) 1,2,4 D) 2,3,4

35. Adabiy tilda quyidagi holatlardan qaysi biri kuzatilmaydi?

A) Adabiy til me'yorlashtirilgan, qolipga solingan, hamma bo'ysunishi majburiy bo'lgan til shakli sanaladi. B) Atamalardan keng foydalaniladi. C) Shevaga xos so'zlar faol qo'llaniladi. D) Neytral so'zlar keng ishlatiladi.

36. Hozirgi kunda til oilalari soni-... A) 30dan ortiq B) 10dan ortiq C) 20dan ortiq D) 6ta

37. Dunyoda olimlarning taxminiy hisoblariga qaraganda nechta til bor?

A) 3 mingdan ortiq B) 2 mingdan ortiq C) mingdan ortiq D) mingga yaqin

38. Qadimiy yozuvlardan bo'lgan dulbarchin yozuvi yana qanday nom bilan ataladi?

A) O'rxun B) Uyg'ur C) Arab D) So'g'd

39. Lotin alifbosi asosidagi ilk o'zbek yozuvidan xalqimiz qachondan boshlab foydalangan?

A) 1930-yildan B) 1993-yildan C) 1929-yildan D) 1940-yildan

40. Ajdodlarimiz uzoq davr foydalangan uyg'ur yozuvi qachon iste'moldan chiqib ketgan?

A) XV B) XIII C) XVIII D) XVI

41. Turkiy tillar orasida qaysi til «o» lovchi til sanaladi?

A) Uyg'ur tili B) Qirg'iz tili C) O'zbek tili D) Turk tili

42. Qaysi bandda shevaga oid so'z berilgan?

A) mashvarat B) shamshir C) mullajiring D) huvnon

43. Qipchoq shevasining eng muhim belgisi nima?  
 A) unlilar choʻziladi B) «o»lashish yuz beradi C) «y» oʻrnida «j» ishlatiladi D) qaratqich kelishigi oʻrnida tushum kelishigi qoʻllanadi
44. Eski oʻzbek tilida tushum kelishigi qanday qoʻshimchalar vositasida ifodalangan?  
 A) -ru, -karu, -qaru, -garu B) -duk, -duq, -sar C) -gʻ, -igʻ, -g, -ig D) togʻri javob yoʻq
45. Til birligi nima? A) Til qonunlari asosida grammatik va ohang jihatdan shakllangan, fikrni ifodalash uchun xizmat qiladigan nutq birligi B) Grammatik maʼnoni ifodalash xizmat qiladigan til vositasi C) Soʻzlarning shakliy qismi-Grammatik shakli ifodalaydigan maʼno D) Bir-biridan vazifasi, ifoda materiali tuzilishi va tizimidagi oʻrni bilan farqlanadigan til hodisasi

## 2-maʼruza: FONETIKA

1. Nutq tovushlarining hosil boʻlishida faol ishtirok etuvchi nutq aʼzolari qaysi qatorda berilgan?  
 A) pastki jagʻ, kekirdak, til, lablar B) til, tovush paychalari, lablar C) burun, kichik til, lablar D) til, kekirdak, tovush paychalari
2. Qaysi undosh tovush lablar bir-biriga yaqinlashganda, oradagi tirqishdan sirgʻalib chiqadi? A) d B) s C) v D) p
3. Qaysi undosh tovush pastki lab bilan ustki tish orasida hosil boʻladi?  
 A) d B) s C) r D) f E) m
4. Faqat ovoz(un) dan hosil boʻluvchi undoshlar qatorini koʻrsating.  
 A) Bunday undoshlar yoʻq. B) m,n,ng,l,r C) a,o,u,e,i,oʻ D) y,h
5. Qaysi qatordagi soʻzlarda **ch** tovushining jarangli jufti bor?  
 A) jurnal, ajdar B) prujina, jemper C) joʻja, jahon D) choy, chavgon
6. Qaysi qatordagi soʻzlar talaffuz qilinganda, bir burun tovushi boshqasiga almashishi mumkin?  
 A) kitob, daftar B) shanba, yonbosh C) zarur, maktab D) tartib, obod
7. Qaysi qatordagi soʻzlar qoʻsh undoshli yozilsa ham, talaffuz qilinganda, bitta undosh aytiladi?  
 A) tilla, pilla B) kongress, million C) avval, taajjub D) katta, gramm
8. Qaysi qatordagi soʻz talaffuz etilganidek yozilsa, maʼno butkul oʻzgaradi?  
 A) dasht B) juft C) toʻrt D) farzand
9. F undoshiga toʻgʻri tavsif berilgan javobni aniqlang.  
 A) lab-lab, portlovchi, jarangsiz undosh B) lab-tish, portlovchi, jarangli undosh  
 C) lab-lab, portlovchi, jarangli undosh D) lab-tish, sirgʻaluvchi, jarangsiz undosh  
 tovush boʻlib, faqat olinma soʻzlarda uchraydi.
10. Hosil boʻlish oʻrniga koʻra b va p undosh tovushlariga toʻgʻri tavsif berilgan qatorni toping.  
 A) b - lab undoshi, lab-lab; p - lab undoshi, lab-lab B) b -jarangli undosh; p - jarangsiz undosh C) b jarangli undoshning jarangsiz jufti p undoshidir D) b va p - portlovchi undosh tovush

11. Hosil bo'lish usuliga ko'ra q va g' undosh tovushlariga to'g'ri tavsif berilgan qatorni toping.

A) q - til undoshi, chuqur til orqa; g' - til undoshi, chuqur til orqa B) q va g' - bo'g'iz undoshlari C) g' - jarangli undosh; q - jarangsiz undosh D) q - portlovchi ; g' - sirg'aluvchi undosh.

12. Qorishiq undosh tovushlar... A) m, n, ng B) sh, f C) ch D) l, r,

13. X undoshiga to'g'ri tavsif berilgan javobni toping. A) chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovush B) bo'g'iz, sig'aluvchi, jarangsiz undosh tovush C) chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangli undosh tovush D) chuqur til orqa, portlovchi, jarangsiz undosh tovush

14. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra sh va j undosh tovushlari...

A) sh - til undoshi, til oldi; j - til undoshi, til oldi B) j jarangli undoshning jarangsiz jufti sh undoshi C) sh hamda j - sirg'aluvchi undosh D) sh - jarangsiz undosh; j - jarangli.

15. Javoblarning qaysi birida unli tovushlar ko'rsatilgan?

A) b, f, q, p B) a, u, o', i, o, e C) i, e, a, o D) m, n, ng, r

16. Qaysi tovush tilning tanglayga tegish paytida havoning ikki yondagi tirqishidan sirg'alib chiqishidan hosil bo'ladi? A) y B) r C) q D) l

17. Qaysi so'zda hosil bo'lish o'rniga ko'ra bir guruhga mansub undoshlar qatnashgan?

A) norasida B) mabodo C) qarg'a D) ko'rmana

18. Qaysi so'z talaffuz qilinganda, undagi ikki o'xshash tovushdan biri noo'xshash tovushga almashishi mumkin?

A) tuzsiz B) yigitcha C) bojxona D) zarur

19. H tovushining paydo bo'lish o'rnini ko'rsatilgan qatorni aniqlang.

A) labda B) til oldida C) bo'g'izda D) burunda

20. Urg'u orqali so'z ma'nolarini farqlash mumkin bo'lgan qatorni toping.

A) yangi, yigitcha, qishloqcha B) surma, kitob, hovli C) fizik, chog'lar, mudir D) olma, anjir, muhit

21. Yopiq bo'g'inlarni toping.

A) gulli, soat, peshvoz B) yubor, hamdam, olma C) osmon, maktab, tokzor D) quloq, soya, jang

22. Qaysi qatordagi undoshlar tilning eng orqa qismida hosil bo'ladi?

A) b, d, g B) p, t, k C) q, g', x D) x, h, f

23. Qaysi qatorda bo'g'in ko'chirish qoidasi buzilgan?

A) ko'-ngil B) ing-liz C) men-ga D) si-ngil

24. Yopiq bo'g'inlaridan biri faqat jarangli undoshlardan tashkil topgan so'zni toping.

A) ko'cha B) paxta C) sunbul D) kitob

25. O'zbek adabiy tilida necha undosh tovush mavjud?

A) 25ta B) 27ta C) 23ta D) 28

26. Tilning old qismida hosil bo'ladigan tovushlarni toping.

A) v, f B) b, p C) d, t D) ch, k

27. Tilning eng orqa qismida hosil bo'ladigan undosh tovushlar qaysi qatorda to'g'ri berilgan?



- A) q,x B) g',k C) h,g D) y,n
28. Qaysi qatordagi soʻzlarda faqat jarangsiz undoshlar bor? A) gilos, rayhon, gulkaram B) sochpopuk, shafqat, koʻkat C) ziynat, koʻhlik, libos D) koʻmakdosh, inson, koʻrgazma
29. Qaysi qatordagi soʻzlarda faqat jarangli undoshlar bor?  
A) pastak, koʻksulton, koʻlmak B) bardosh, koʻklam, badnafs C) zagʻizgʻon, maydon, jadval D) paxsa, sukut, sochiq
30. Qaysi tovushlar talaffuz qilinganda, havoning bir qismi burun boʻshligʻidan chiqadi?  
A) v, f, b, p B) m, n, ng C) ng, x, oʻ D) q, gʻ, h
31. Unli va jarangli undoshlardan hosil boʻlgan soʻzlar qatorini belgilang.  
A) mashq, kitob, soʻz B) paxta, xalq, choynak C) maydon, dor, gul D) maktab, sabab, maqol
32. Dublyaj, ekipaj, garaj soʻzlaridagi j ning jarangsiz jufti qaysi tovush?  
A) b B) d C) sh D) g
33. Qaysi qatordagi barcha soʻzlarda ng tovushi qoʻllangan?  
A) nonga, keng, tushuncha B) unga, donga, oʻtinga C) maymunga, yurganga, borganga D) tongga, mingga, zangga.
34. Boʻgʻinning amaliy ahamiyati nimalardan iborat?  
A) yozuvda bir satrga sigʻmay qolgan soʻz keyingi yoʻlga boʻgʻin asosida koʻchiriladi. B) birinchi sinf oʻquvchilarini oʻqish va yozishga oʻrgatish ham boʻgʻinga asoslanadi. C) sheʻriy misralarda boʻgʻinlar sonining teng boʻlishi eʼtiborga olinadi D) A, B E) A, B, C.
35. Oʻzbek tilida quyidagi shakllardan qaysi biri boʻgʻin sifatida uchramaydi?  
A) faqat bir unidan iborat boʻlgan boʻgʻinlar B) bir unli va bir undoshdan tuzilgan boʻgʻinlar C) bir unli va ikki undoshdan hosil boʻlgan boʻgʻinlar D) bir undosh va ikki unidan iborat boʻgʻinlar
36. Son-sana, shahar-shahri, men-mening kabi asos va qoʻshimchalarning qoʻshilishida tovush oʻzgarishlarining qaysi turlari vujudga kelgan? A) tovush almashishi B) tovush tushishi C) tovush almashishi va tovush orttirilishi D) tovush almashishi va tushishi
37. Sirgʻaluvchi j tovushini ifoda etuvchi soʻzlar qatorini toping.  
A) jimjit, gʻijjak B) joʻyak, ajdod C) vijdon, garaj D) jumla, janob
38. *Pasay - susay* soʻzlarida asos va qoʻshimchalarning qoʻshilishidan qanday fonetik oʻzgarish vujudga kelgan?  
A) unli tovushlar almashishi B) undosh tovushlar almashishi C) unli tovushlar tushishi D) undosh tovushlar tushishi
39. Urgʻuni koʻchirish natijasida yangi maʼno anglatuvchi soʻzlar qatorini aniqlang.  
A) bola, fasl, mehr B) ishlar, hozir, qoʻllar C) odam, qadr, yigitcha D) muhim, ahil, chogʻlar
40. Quyidagi soʻzlarning qaysi qatorida qoʻshimcha qoʻshilishi bilan tovush oʻzgarishi sodir boʻlgan?  
A) oʻlcham, toʻplam, oʻymakor B) shirinlik, koʻpchilik, bogʻlam

- C) ko'ylakchan, ko'klam, o'lguncha D) guldiros, qishloq, ovloq
41. Unli va jarangli undosh tovushlardan hosil bo'lgan so'zlarni belgilang.  
A) bolalar, gul, ozod B) maktab, cabab, maqol C) mashq, kitob, so'z  
D) paxta, xalq, choynak
42. Qaysi qatordagi so'zlarning urg'usi ko'chsa, so'z ma'nosi o'zgaradi?  
A) qo'llar, yangi, bog'lar B) oshiq, surma, mudir C) bahor, atlas, yaxshi  
D) hovli, zavqli, shaharga
43. Sirg'aluvchi tovushlarni toping. A) sh, j, k B) s, z, sh C) q, ch, j D) m, n, h
44. Qaysi qatordagi jarangli undoshlarning jarangsiz jufti bor?  
A) b, g, d, j, y, l B) v, g, d, l, m, n C) b, v, d, z, j, g D) v, g, d, j, y, m
45. Qaysi qatorda jarangsiz jufti yo'q undosh tovushlar berilgan?  
A) g, g', y, l, m, n B) v, z, j, m, n C) l, m, n, ng, r D) z, j, g', i, r
46. Faqat ochiq bo'g'inli so'zlarni toping.  
A) g'o'za, baraka, ibora B) arava, ashula, ilgari C) ilova, olim, andisha  
D) ijod, izza, rubob
47. Qaysi qatordagi so'zlarda urg'u so'zning oxirgi bo'g'inga tushmagan?  
A) nafosat, odamzod, madaniyat B) qulupnay, qo'g'irchoq, hujayra C) hamma, texnika, hamisha D) iltimos, kelajak, darvoza
48. Transport so'zidagi ikkinchi bo'g'in necha unli va undoshdan tuzilgan?  
A) bir unli va ikki undoshdan B) bir unli va uch undoshdan C) bir unli va to'rt undoshdan D) bir unli va besh undoshdan
49. Quyidagi so'zlarning qaysi biri tarkibida ochiq bo'g'in bor?  
A) san'atkorlik B) to'rtlikdan C) otlantirmoq D) biriktirmoq
50. Qo'shimcha qo'shilishi natijasida o'zagida tovush tushishi yuz bergan so'zlarni toping.  
A) so'rog'im, o'rtog'im B) o'rni, ulg'ay C) xatoying, pasay D) ayrim, aldov
51. Qaysi xususiyat so'z urg'usiga xos?  
A) gapda biror so'zning ta'kidlab aytilishi B) so'zdagi biror bo'g'inning ta'kidlab aytilishi C) so'z ma'nosini o'zgartirish D) B, C
52. *Yangi, hozir* so'zlarida urg'u oxirgi bo'g'inga tushganida qanday ma'no anglashiladi?  
A) yangi (yangi kitob), hozir (hozir shu yerda edi) B) yangi (u yangi ketdi), hozir (davrada hozir bo'lishdi) C) yangi (u yangi ketdi), hozir (hozir u shu yerda edi) D) yangi (yangi kitob), hozir (davrada hozir bo'lishdi)
53. Urg'u yordamida *suzma* (ot turkumidagi so'z), *qizgina* (-gina yuklama) so'zlarining ma'nosi to'g'ri ifodalangan qatorni belgilang.  
A) *suzma*, *qizgina* B) *suzma*, *qizgina* C) *suzma*, *qizgina* D) *suzma*, *qizgina*
54. *Kongress* so'zi qaysi qatorda bo'g'inlarga to'g'ri ajratilgan?  
A) ko-ng-ress B) kong-ress C) kon-gress D) kong-res-s
55. Qaysi savol noto'g'ri tuzilgan?  
A) Nutq tovushlarini hosil qilishda nutq organlaridan qaysilari ishtirok etadi?  
B) Nutq tovushlarini hosil qilishda qaysi nutq organlari faol ishtirok etadi.  
C) Nutq tovushlarining hosil bo'lishida tovush (un) paxchalarining qanday ahamiyati bor?



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi  
<https://kitobxon.com/uz/asar/258> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси  
<https://kitobxon.com/uz/asar/258> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно  
найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/258>